



THE SIGNIFICANCE OF THE MAIN ACTIVITY GAME IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Sh.Sh.Nizomova

Bukhara State University, Faculty of Sports Activities and Pedagogical Education, (PhD)
Associate Professor of the Department of Preschool Education

Orziyeva Munisxon

Student of group 9-3-MTS-19

Annotation: The place of the game in the education of children in the preschool education system is incomparable. Children's games are mainly played by peers, parents, grandparents, neighborhood leaders and educators. Children of preschool age, who are just developing, are unaware of the secrets of the world. This article discusses the importance of education and play for children of this age.

Key words: Information resource, game technology, emotional development, speech culture, educational technology.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim–tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul.

Sayr davomida harakatli o'yinlarni, qurish-yasash o'yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o'yin uchun maxsus vaqt belgilash o'yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo'lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o'yinning o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi

1

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE " MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS" – Brno, Czech

Copyright (c) 2024 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY). To view a copy of this license, visit <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma - hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O'yinlarning bunday bo'lishi albatta, shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin.

O'yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o'yin mazmunining ta'lim - tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg'ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim. O'yinda bola kishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar. Ammo, o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalanadi. Juda ko'pchilik o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o'z navbatida organizmda modda almashinuvini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to'g'ri o'sishini, harakatlari chiroyli bo'lishini ham ta'minlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari, xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat - 1 soat 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli-rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi. Xulosa o'rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi



narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallari bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. NIZOMOVA, S. (2023). SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON KECHINMALARINING IFODALANISHI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 53-57.
2. NIZOMOVA, S. S. (2023). THE SYMBOLISM OF FIRE AND WATER IN POEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(9), 48-54.
3. Shodiyevna, N. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O'QITISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Научный Фокус*, 1(2), 1187-1193.
4. Nizomova, S. S., & qizi Istamova, M. S. (2024, February). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 3, No. 1, pp. 60-69).
5. Nizomova, S. S. (2023). INKLYUZIV TA'LIM: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI, XUSUSIYATLAR VA TAVSIYALAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 673-673.
6. Nizomova, S. S., & Jumayeva, M. H. (2024). REPRESENTATION OF THE IMAGE OF WATER IN MODERN UZBEK POETRY. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 3(1), 70-75.
7. Shodiyevna, N. S. (2022). The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 170-174.
8. Nizomova, S. (2021). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA OLOV ANALOGLARINING OBRAZLANTIRILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
9. Nizomova, S. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA XALQ O'ZAKI IJODINING O'RNINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 45(45).
10. Nizomova, S. (2020). ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ-ОСНОВА НАШЕГО БУДУЩЕГО. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. Shodiyevna, N. S. (2023). Speech Defects and Ways To Eliminate Them, Which Occur in Children. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
12. Nizomova, S. (2020). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ, ОБРАЗОВАНИИ И РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
13. Низомова, Шохиста Шодиевна. "СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ АДАБИЙ-ИРФОНИЙ АСОСЛАРИ." *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 1391-1395.
14. Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).



15. Nizomova, Sh Sh. "Symbolic-Emblematic Expression of Water Bodies and Structures in Modern Poetry." *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 1.2 (2022): 126-128.
16. Низомова, Ш. Ш. (2022). СУВ ВА ОЛОВГА МАРОСИМИЙ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДАГИ ТАЛҚИНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(3), 191-199.
17. Низомова Ш. Ш. ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТДА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИН ХУСУСИЯТЛАРИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1396-1400.
18. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. "The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 170-174.
19. Nizomova, Shoxista. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA BADIY ADABIYOT BILAN ISHLASHNI ORGATISH." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 33.33 (2023).
20. Nizomova, Shoxista. "МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTIDA O'YINNING VOLA HAYOTIDAGI ANAMIYATI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 32.32 (2023).
21. Низомова, Шохиста Шодиевна. "ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ." *Проблемы науки* 6 (65) (2021): 79-81.
22. Sharipova M. B., Nizomova S. S. The artistic image of the image of " water" in the poem //ученый XXI века. – 2018. – №. 11.
23. Sh.Sh.Nizomova - Теория и практика современной науки, 2020, modern poetry
24. Sh.Sh. Nizomova Sharia's description of the ceremonial attitude to water
- Archive of Conferences, 2020
25. Низомова Ш. Ш. БАДИИЙ ИЖОДДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗЛАРИ ГЕНЕЗИСИНИНГ ҲАЁТИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1061-1066.
26. Shodiyevna, N. S. (2022). The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 170-174.
27. Nizomova, S. S. (2020). MODERN POETRY. In *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* (pp. 89-90).
28. Nizomova, Shoxista Shodiyevna. "THE SCOPE OF THE TOPICS OF THE SHARIA OF THE INDEPENDENCE PERIOD." *Archive of Conferences*. Vol. 4. No. 4. 2020.
29. Shodiyevna, Nizomova Shoxista. "МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O 'STIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI." *Научный Фокус* 1.2 (2023): 1187-1193.
30. Nizomova, S. S. (2020, August). THE SCOPE OF THE TOPICS OF THE SHARIA OF THE INDEPENDENCE PERIOD. In *Archive of Conferences* (Vol. 4, No. 4, pp. 68-69).
31. Nizomova, S. S. (2020, August). SHARIA'S DESCRIPTION OF THE CEREMONIAL ATTITUDE TO WATER. In *Archive of Conferences* (Vol. 4, No. 4, pp. 65-67).
32. NIZOMOVA, S. S. (2023). THE SYMBOLISM OF FIRE AND WATER IN POEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(9), 48-54.
33. NIZOMOVA, S. (2023). SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA LIRIK



QAHRAMON KECHINMALARINING IFODALANISHI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 53-57.

34. Nizomova, S. S. (2021). Images In Modern Uzbek Poetry. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 754-758.

35. Nizomova S. Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

36. Nizomova, Shoxista Shodiyevna. "INKLYUZIV TA'LIM: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI, XUSUSIYATLAR VA TAVSIYALAR." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 673-673.

